

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 5



TOШKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1	Svetlana Safarova Satimovna. XORAZM VOHASINING QUYI VOLGA VA JANUBIY SIBIR HUDUDLARI BILAN MADANIY ALOQALARINING TARIXIY MANBALARDA VA TADQIQOTLARDA AKS ETISHI.....	7
2	Yaqubova Shahribonu Davron qizi. HUQUQIY HUJJATLAR TARJIMASIDA ANIQLIK MASALASI.....	13
3	Matyakubov Hakimboy Xamidjonovich. OLAMNING ONOMASTIK MANZARASINI TADQIQ ETISHDA MAKON NOMLARINING STRATIGRAFIK (QATLAMLANISH) TABIATINI ANGLASH.....	15
4	Jabborova Dilnavoz Allaberganovna. MUNIS IJODIDA AN'ANAVIYLIK VA NOVATORLIK.....	19
5	Ёриева Зарифа Хамраевна. ЖОН СТЕЙНБЕК ВА УЛУҒБЕК ҲАМДАМ НАСРИДА ЗАМОН-МАКОН МОДЕЛИ ВА ШАХС РУҲИЯТИНИНГ КЕНГҚАМРОВЛИ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ.....	23
6	Narziyeva Inobat Zoirovna. O'ZBEK ADABIYOTIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR OBRAZINING PSIXOLOGIK TALQINI.....	27
7	Karimova Shaxnoza Karimovna. Atoyeva Zarinabonu Yigitali qizi. MODERNISTIK SHE'RIYATDA ANAFORANING BADIY VAZIFALARI.....	31
8	Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна. ЯДЕРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ИДИОСТИЛЯ: КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ ПОЭТИКИ БАЛЬМОНТА И БРЮСОВА.....	36
9	Шамсутдинова Галия Шамилевна. КЛАССИФИКАЦИЯ НАЗВАНИЙ ЖИЛИЩ В ХОРЕЗМЕ.....	42
10	Yakubova Matluba Tajibayevna. NEMIS - O'ZBEK MAQOLLARINING TARJIMA MUAMMOLARI VA EKVALENTLIK MASALASI.....	46

TARIX

1	Babadjanov B. "O'ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING GENEALOGIYASI VA SIYOSIY-G'OYAVIY ASOSLARI".....	51
2	Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li XIVA XONLIGI QOZILIK HUJJATLARIDA YER OLDI-SOTDISI VA VAQF IJARA MUNOSABATLARINING HUQUQIY RASMIYLASHTIRILISHI.....	55
3	Atayeva Dilfuza Pulatovna. O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASI ORQALI XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLIGINI OSHIRISH.....	57
4	Babadjanov B. "O'ZBEKISTON "MILLIY TIKLANISH" DEMOKRATIK PARTIYASINING SIYOSIY STRATEGIYASI".....	61
5	Yusupov Axmedjon Shonazarovich. OROLBO'YI ILK SAK QABILALARINING ETNO-MADANIY GENEZISI YUZASIDAN BA'ZI MULOHAZALAR.....	65
6	Otaxonova Intizor Norimboy qizi. URGANCH DAVLAT UNIVERSITETIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI.....	71
7	Nurmetov Ismoil Alimbayevich. O'ZBEKISTONDA TABIIY HUDUDLAR MUHOFAZASI.....	75
8	Садиков. А. И. ҚОРАҚАЛПОҚ ХУДУДЛАРИДА АНЪАНАВИЙ МАКТАБ ВА МАДРАСАЛАР ФАОЛИЯТИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	82
9	Саидов Шавкат Жумабаевич. ХХСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....	88
10	Ermanov Alisher Bekmuratovich. TOTALITAR TUZUM DAVRIDA QORAQALPOQ OXUNLARI FAOLIYATI.....	94

PEDAGOGIKA

- 1 **Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna.** PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI..... 97
- 2 **Radjapova Feruza Abdullayevna.** ADAPTIV SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI..... 101
- 3 **Egamova Anbarjon Atanazarovna.** KONSTRUKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYA VA EMOTSIONAL-INTELLEKTUAL OMILLARNING O'RNI..... 106
- 4 **Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li.** AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI (XORIJIIY UNIVERSITETLAR TAJRIBASI MISOLIDA).... 111
- 5 **Atajanov Adilbek Yuldashevich.** OTM PEDAGOG XODIMLARINING ISH O'RNIDAGI FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINI OPTIMALLASHTIRISHDA WFSIP PEDAGOGIK MODELINING NAZORATLI SINOV NATIJALARI..... 117
- 6 **Kurbonboyev Xudoyshukur Maqsudboy o'g'li.** OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI KROSSFIT MASHG'ULOTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI: DOLZARBLIK, O'RGANILGANLIK DARAJASI VA PEDAGOGIK YECHIMLAR..... 125

PSIXOLOGIYA


- 1 **Kalandarova Madina Baxadirovna.** TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDA AYOLLARNING ONALIKKA MOSLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR..... 133
- 2 **Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o'g'li.** ZAMONAVIY TALABALAR HAYOTIY STRATEGIYALARI VA COPING-XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK..... 138

IQTISOD

- 1 **Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna. Raximov G'anisher Alisher o'g'li.** SOLIQQA SOLISH TIZIMLARINING XALQARO TASNIFI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... 143
- 2 **Maxmudov Jasurbek Ergashevich.** INVESTITSION SALOHİYAT TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNING HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI..... 147
- 3 **Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi. Zakirova Gulnoza Qudratovna.** O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA YOSHLAR BANDLIGI: STRUKTURAVIY NOMUTANOSIBLIKLAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYALARI..... 153
- 4 **Zaripov Xurshid Zakir o'g'li. Ruzmetova Gulira'no Atabekovna.** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA MUAMMOLARI..... 157
- 5 **O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich. Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich. Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich.** O'ZBEKISTONDA RAQAMLI FISKAL BOSHQARUV: DAVLAT BUDJETI SHAFFOFLIGI VA MOLIVAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI..... 163
- 6 **Pardayeva Ozoda Mamayunusovna.** TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR..... 168

Karimova Shaxnoza Karimovna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
e-mail: karimovashakhnoz@gmail.com
Atoyeva Zarinabonu Yigitali qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
2-bosqich magistratura talabasi
e-mail: zarinaatoyeva98@gmail.com

MODERNISTIK SHE'RIYATDA ANAFORANING BADIY VAZIFALARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20707432>

Annotatsiya. Mazkur maqolada anaforaning modernistik she'riyatdagi poetik va funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Modernizm adabiyotida anafora nafaqat stilistik bezak, balki matnning ritmik, semantik va psixologik yaxlitligini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida talqin etiladi. Maqolada Tomas Stearnz Eliot, Uolt Uitman, Allen Ginsberg, Jeyms Joys, Uilyam Batler Yets hamda Devid Herbert Lourens ijodidan misollar asosida anaforaning ichki ritm yaratish, ong oqimini ifodalash, emotsional ta'sirni kuchaytirish va semantik fragmentlarni birlashtirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot natijasida anafora modernistik poetikada shakl va mazmuni uyg'unlashtiruvchi tayanch poetik unsur ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: anafora, modernizm, poetika, erkin she'r, ritm, ong oqimi, semantik yaxlitlik, poetik vosita, modernistik she'riyat.

THE ARTISTIC FUNCTIONS OF ANAPHORA IN MODERNIST POETRY

Abstract. This article analyzes the poetic and functional significance of anaphora in modernist poetry. In modernist literature, anaphora is interpreted not only as a stylistic ornament, but also as one of the main tools that ensures the rhythmic, semantic and psychological integrity of the text. The article highlights the role of anaphora in creating inner rhythm, representing the stream of consciousness, enhancing emotional impact, and integrating semantic fragments based on examples from the work of Thomas Stearns Eliot, Walt Whitman, Allen Ginsberg, James Joyce, William Butler Yeats, and David Herbert Lawrence. The study proves that anaphora is a fundamental poetic element that unites form and content in modernist poetry.

Keywords: anaphora, modernism, poetics, free verse, rhythm, stream of consciousness, semantic integrity, poetic device, modernist poetry.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ФУНКЦИИ АНАФОРЫ В МОДЕРНИСТКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. В данной статье анализируется поэтическое и функциональное значение анафоры в модернистской поэзии. В статье освещается роль анафоры в создании

внутреннего ритма, выражении потока сознания, усилении эмоционального воздействия и объединении смысловых фрагментов на примерах из работ Томаса Стерна Элиота, Уолта Уитмена, Аллена Гинзберга, Джеймса Джойса, Уильяма Батлера Йейтса и Дэвида Герберта Лоуренса. В результате исследования обосновывается, что анафора является опорным поэтическим элементом, гармонизирующим форму и содержание в модернистской поэтике.

Ключевые слова: анафора, модернизм, поэтика, свободный стих, ритм, поток сознания, смысловая целостность, поэтический прием, модернистская поэзия.

20-asr adabiyotidagi modernizm - bu asrning birinchi yarmidagi mafkuraviy oqim bo'lib, u klassik an'analardan tubdan farq qilar edi. XX asr boshidagi modernist yozuvchilar eski adabiy qoliplardan voz kechib, yangicha uslublarni qo'llay boshladilar. Jahon adabiyotshunosligida modernistik oqim vakillari Jeyms Joys, Marsel Prust, Frans Kafka, Tomas Sternz Eliot, Ernest Xeminguey, rus ijodkorlardan Anna Axmatova, Andrey Bely, Mixail Bulgakov, Marina Svetayeva kabilar sanaladi. Ularning har biri o'z yo'nalishi bo'yicha 20-asr so'z san'atini isloh qildi. Har biri modernizmning buyuk asoschisi sanaladi. Modernist shoirlar asarlarida asosan bosh qahramon ichki dunyosi tasviriga e'tibor berar edilar. Shuning uchun adabiy tanqidchilar ularni yomonlik, pushaymonlik, afsus kabilarni ko'rsatuvchi kishilar deb ayblashar edi.

Modernist yozuvchilar insonning hayotiga yangi uslubda qarashni boshlaydilar va shuning uchun yozish uchun yangi g'oya izlaydilar. Shuningdek, ular ko'proq eksperimental va nihoyatda individualistik yozish usuliga amal qiladilar. Bu davrda anafora (misra boshidagi takror) shunchaki nutqni chiroyli chiqishi uchun emas, balki tarqoq fikrlarni bir butun holatga keltirish uchun asosiy vosita sifatida xizmat qildi.

Anafora modernistik she'riyatda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Qismlar o'rtasida bog'liqlikni hosil qilib, ularning yaxlitligini ta'minlash – ya'ni bo'lak-bo'lak tasvirlar anafolik takror orqali yagona semantik maydonga jamlanadi.
2. Ichki ritm yaratish ya'ni an'anaviy vazn yo'qligida anafora ritmik tizimni shakllantiradi.
3. Ong oqimini ifodalash – takrorlar (anafora) inson tafakkuridagi mavjud fikrlarni ifodalaydi.
4. Ramziy ma'noning chuqurlashuvi – bir xil so'zlarning takror qo'llanishi uning semantik yukini oshiradi.

Modernizmدا anafora an'anaviy she'riyatdagidek faqat ritm va ohangdorlikni ta'minlash bilan cheklanmaydi. Aksincha, u ko'pincha parokandalik, ichki ziddiyat va ong oqimini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, Tomas Stearnz Eliot ijodida anafora fragmentar shaklda, uzilgan va ba'zan to'liq bo'lmagan takrorlar orqali beriladi. Bu esa modern inson tafakkurining notekisligi, ichki iztiroblari va ruhiy beqarorligini aks ettiradi.

Masalan, Eliotning "The Waste Land" asarida takroriy birliklar (savol shakllari, murojaatlar, qisqa sintaktik bo'laklar) anaforiga xos effekt hosil qilib, matnda keskin emotsional va dramatik muhit yaratadi. Bu yerda anafora an'anaviy uyg'unlik emas, balki buzilish va parchalanish estetikasiga xizmat qiladi. Shu jihatdan u modernistik poetikaning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Anaforaning yana bir muhim funksiyasi – semantik fragmentlarni birlashtirishdir. Modernistik matnlar ko'pincha intertekstual, parcha-parcha va murakkab tuzilishga ega bo'ladi. Bunday holatda anafora turli obrazlar va g'oyalar o'rtasida ichki bog'liqlik hosil qilib, matnning yashirin yaxlitligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, anafora modernistik she'riyatda ba'zan ironik yoki kontrast maqsadlarda ham qo'llanadi. Takror orqali kutilgan uyg'unlik o'rniga ma'no uzilishi yoki semantik qarama-qarshilik yuzaga keladi. Bu esa matnni yanada murakkab va ko'p qatlamli qiladi.

Demak, anafora modernistik she'riyatda:

- oddiy ritmik vosita emas, balki strukturaviy tayanch;
 - ong oqimi va psixologik holatni ifodalovchi mexanizm;
 - semantik fragmentlarni birlashtiruvchi vosita;
 - dramatik va emotsional kuchni oshiruvchi omil
- sifatida namoyon bo'ladi.

Shu jihatdan, Tomas Stearnz Eliot kabi modernist shoirlar ijodida anafora badiiy nutqni tashkil etuvchi markaziy poetik vositalardan biri darajasiga ko'tarilgan.

Bu jihatlar modernizmning asosiy belgilaridan biri — ichki dramatism va ma'no ko'p qatlamlilikini yuzaga chiqaradi. Shu sababli anafora modernistik she'riyatda shakl va mazmuni bog'lovchi asosiy tayanchlardan biri hisoblanadi.

Have you reckon'd a thousand acres much?

have you reck - on'd the earth much?

Have you practis'd so long to learn to read?

Have you felt so proud to get at the meaning of poems? [1.]

Yuqoridagi she'r ham modernistik goyalarni ilgari suradi. Shoir Uolt Uitman ushbu she'rda u butun olamni "o'zim" (myself) — hamma narsaga qodir "men" (I) ichida jamlashga harakat qiladi. Buning uchun u o'ziga tegishli va o'zini ular bilan bog'laydigan juda ko'p narsalarni sanab o'tishi kerak bo'ladi. She'riyat tilida bu ro'yxatlarga "katalog" (catalog) deyiladi. Bu ro'yxatlar ko'pincha bir xil so'z yoki ibora bilan boshlanadigan ketma-ket ko'plab misralarni o'z ichiga oladi, bu esa "anafora" deb ataladi. Bu yerda anafora misralar boshida "Have you" iborasi bilan boshlanib, she'rda kuchli ohangdorlik yaratgan. Har bir satr bir xil savol konstruksiyasi bilan boshlanmoqda ya'ni bu klassik anafora. Uitman bu yerda oddiy bayonot bermaydi, ya'ni u savollar beradi. Anafora vositasida takrorlangan "Have you..." o'quvchini o'z-o'ziga savol berishga undaydi. E'tibor berilsa, mazkur she'rda Have you + fe'l + shakli qo'llanilgan. Aynan shu qurilma she'rga ichki ritm beradi, hatto erkin vaznda ham ohangdorlik hosil qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Uitman erkin she'r (free verse) uslubida ijod qilgan. Avvalo, "erkin she'riyat" atamasini XX asr shoirlaridan, Uolt Uitman ilhomi bilan ijod qilgan Uilyam Karlos Uilyams va Allen Ginsberg kabi shoirlar ommalashtirgan. Bu atama "muntazam shakl yoki o'lchovga ega bo'lmagan she'r" degan ma'noni anglatadi. Shu uchun shoirning ushbu "Song of Myself" she'ri ham erkin she'r hisoblanadi.

Bundan tashqari, Uitman she'rlarining bir misrasidan shoirning qalamiga mansubligi bilinadi. U misralarning boshidagi so'zlarni takrorlash, ya'ni "anafora" deb ataluvchi uslubni ham o'z ichiga olgan holda ko'p takrorlardan foydalanadi. She'riyat matnda ayniqsa quyidagi anaforalar e'tiborga tushadi:

Stop this day and night with me and you shall possess the origin of all poems,

You shall possess the good of the earth and sun, (there are millions of suns left,) You shall no longer take things at second or third hand, nor look through the eyes of the dead, nor feed on the spectres in books,

You shall not look through my eyes either, nor take things from me.

You shall listen to all sides and filter them from yourself.

Swiftly arose and spread around me the peace and knowledge that pass all the argument of the earth;[1]

"You shall..." takrori orqali shoir kitobxonga murojaat qiladi va uni faol subyektga aylantiradi. Bu yerda buyruq emas, balki ruhiy uyg'onishga chaqiriq bor. Har bir takror o'quvchiga yangi "haqiqat"ni taqdim etadi. Garchi bu she'r erkin she'r (free verse) uslubida yozilgan bo'lsa ham, unda qo'llanilgan anafora orqali ichki ritm hosil qilinadi. Qolaversa, "You shall..." anaforasi she'rni monolog emas, balki jonli murojaatga aylantiradi. Natijada o'quvchi o'zini she'r ichida his qiladi.

Umuman olganda, "Song of Myself" she'rida anafora shunchaki bezak vositasi emas, balki u she'rdagi muhim g'oyani kuchaytirishga xizmat qiladi, she'rga o'zgacha ritm beradi hamda kitobxonni faol fikrlashga undaydi.

Uolt Uitman Amerika adabiyotida milliy ruhni shakllantirishga intilgan muhim shoirlardan biri hisoblanadi. U erkin she'riyat shaklidan hamda individual hayotiy tajribalarni chuqur tasvirlashdan foydalanib, shaxs individualligini yuksak qadriyat sifatida talqin etadi. Shu bilan birga, uning poetikasi faqat individual tajriba bilan cheklanmaydi, aksincha, u alohidalikdan umumiylik sari yo'nalib, turli va xilma-xil unsurlar orqali yaxlitlik va ijtimoiy birdamlik g'oyasini ifodalaydi.[2]

Shoirning individual uslubi shundaki, uning she'rlarida anafora mazmun tashuvchi asosiy konstruktiv vosita hisoblanadi.

Jeyms Joys irlandiyalik shoir va yozuvchi bo'lib, u ham XX asr boshlaridagi modernist oqimining eng ta'sirli ijodkorlaridan biri hisoblanadi. Jeyms Joysning "Ulysses" hamda T.S.Eliotning "The Waste Land" she'ri paydo bo'lishi bilan 1922-yil ingliz tilidagi adabiy modernizm tarixida muhim yil bo'ldi. "Ulysses"da Joys o'z qahramonlarini tasvirlash uchun ong oqimi, parodiya, hazillar va deyarli barcha boshqa an'anaviy adabiy uslublardan foydalanadi.

Bundan tashqari, shoirning "Chamber Music" she'rida anaforalarning aniq va kuchli shaklini, ularning o'ziga xos xususiyatini uchramiz:

Who goes amid the green wood
With springtide all adorning her?
Who goes amid the merry green wood
To make it merrier?
Who passes in the sunlight
By ways that know the light footfall?
Who passes in the sweet sunlight
With mien so virginal?[5]

Yuqoridagi she'rda takrorlangan "Who..." savollari she'rni oddiy matndan ko'ra qo'shiq yoki ballada kabi eshitiladigan qiladi. "Who goes...?" boshlangan savollarga javob berilmaydi, bu anafora o'quvchini she'rning asl g'oyasiga qiziqtiradi va uni fikrlashga undaydi. Misralar yaxshiroq tahlil qilinsa, anafora orqali tabiiy obrazlar - o'rmon (green wood), bahor (springtide), quyosh (sunlight) bir ritmga birlashadi. Bundan tashqari, bu parchada anafora she'rga musiqiylik beradi, sirli va savolli ohang yaratadi, tabiat manzarasini uyg'unlashtiradi.

When you are old and grey and full of sleep,
And nodding by the fire, take down this book,
And slowly read, and dream of the soft look
Your eyes had once, and of their shadows deep;[5]

Ko'rinadiki, bu she'rda "And" so'zi bir necha misra boshida (va ichida) takrorlanmoqda. Bu anafora (va qisman polisindeton) hisoblanadi. Polisindeton ham sintaktik figura bo'lib, unda bog'lovchilar takrorlanadi. Ikkinchi va uchinchi misralar boshida takrorlangan "And" she'rga sekin oqim beradi. Bu esa qarilik holatini va gashtini vaqti kelganda osoyishtalik va xotirjamlik bilan yashab o'tishni ifodalaydi. "And" takrori voqealarni bir-biriga ulab, go'yoki o'tmish xotiralari birin-ketin esga tushayotgandek taassurot beradi. Bu she'rda anafora ritmni sekinlashtiradi, histuyg'uni kuchaytiradi hamda fikrlarni bir-biri bilan uzviy bog'laydi. Ya'ni, u faqat shakliy bezak emas, balki she'rning mazmunini chuqurlashtiruvchi asosiy poetik unsur hisoblanadi.

Modernizm nazariyasi va poetikasini rivojlantirgan yorqin ijodkorlardan biri T.S.Eliot bo'lib, u she'riyatda takror va parallel qurilmalarning o'rni haqida alohida fikr yuritadi. Uning qarashlariga ko'ra, zamonaviy she'riyatda mazmun ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri emas, balki takrorlanuvchi obrazlar va iboralar orqali ochiladi.

Eliot 20-asr shoiri va shuning uchun u zamonaviy insonning axloqiy va ma'naviy tanazzulini, insoniy qadriyatlarining yo'qolishini, inson dunyosida betartiblik, chalkashlik va keskinlikning keng tarqalganligini kuchli ta'kidladi. U asarlarida o'zi yashagan davrni tasvirlaydi. U insonning yurak urishini his qilishga harakat qiladi va uning muammolari va tarangligini ta'sirli tarzda ifodalaydi.

Shoir sifatida T.S.Eliot klassik an'ana doirasida faoliyat yuritgan. Klassisizm vakillari ifodada aniqlik va qat'iy nazoratga amal qilib, asosiy yo'naltiruvchi kuch sifatida aqlni ustuvor qo'yadilar. Bunday yondashuvda aql hissiyotdan, obyektivlik subyektivlikdan, tafakkur esa emotsional holatdan yuqori baholanadi. Shuningdek, klassisizm an'anasi tarafdorlari tashqi estetik-me'yoriy hokimiyatga sodiqlikni muhim deb biladilar. Aksincha, romantizm yo'nalishi vakillari ijod jarayonida subyektivlikka tayanib, ichki kechinmalar va individual "ichki ovoz"ni asosiy manba sifatida qabul qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, anafora modernistik she'riyatda nafaqat bezak vositasi, balki ritm, ma'no, emotsiya va kompozitsiyani birlashtiruvchi asosiy tayanch unsurlardan biri hisoblanadi. Nafaqat she'rning sintaktik qurilishi, balki uning mazmuniga ham ta'sir qilishiga muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Walt Whitman. Selected poems. New York. Charles and Webster Co. 1892. – P.110.
2. Abdel Elah Al-Nehar. Whitman's "Song of Myself" The Structure of "Song of Myself". Arab Journal of Sciences and Research Publishing. 2017. ISSN: 2518-5780
3. Allen Ginsberg. Poems- Classic Poetry Series. 2012. Poemhunter.com - The World's Poetry Archive. -P.1.
4. James Joyce. Poems- Classic Poetry Series. 2012. Poemhunter.com - The World's Poetry Archive. -P.10.
5. <https://archive.org/details/musicchamber00joycrich/page/viii/mode/2up>
6. W.B. Yeats. Selected poems. Compiled by Emma Laybourn, 2018.
7. David Herbert Lawrence. Poems-Classic Poetry Series. 2012. Poemhunter.com - The World's Poetry Archive. -P.3.

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].